

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Qoraqalpog'iston Respublikasi 2020-yil 1-aprel holatiga 1903,9 ming kishini tashkil etib, 2020-yil boshidan 5,5 ming kishiga yoki 0,3 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 933,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,0 %), qishloq aholisi soni 970,7 ming kishini (51,0 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2020-yil yanvar-mart

Aholi soni yil boshidan **5,5 ming kishiga** ko'paydi.

- Tirik tug'ilganlar soni **8,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **1,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,7 minta nikoh** va **0,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Yanvar-mart oylarida

**Tirik
tug'ilganlar
soni
8249
bola**

**Vafot
etganlar soni
1908
kishi**

**Ko'chib
kelganlar
2500
kishi**

**Ko'chib
ketganlar
soni
3311
kishi**

Yil boshiga doimiy aholi soni
1898351 kishi
(2020-yil 1-yanvar holatiga)

**Tabiiy o'sishi
6341
kishi**

**Mexanik o'sish
(kamayish)
-811
kishi**

Doimiy aholi soni
1903881 kishi
(2020-yil 1-aprel holatiga)


Demografik holat

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha doimiy aholi soni (1- aprel holatiga ming kishi)

	2019 y.	2020 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 875,5	1903,9	101,5
Nukus sh.	316,2	321,0	101,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	195,9	199,8	102,0
Beruniy	188,4	192,0	101,9
Bo'zatov	21,5	21,6	100,5
Qorao'zak	52,4	52,8	100,8
Kegeyli	71,9	72,6	101,0
Qo'ng'irot	128,7	130,3	101,2
Qonliko'l	50,4	51,1	101,4
Mo'ynoq	31,4	31,9	101,6
Nukus	49,4	50,4	102,0
Taxiatosh	73,1	74,0	101,2
Taxtako'pir	39,9	40,2	100,8
To'rtko'l	211,1	215,0	101,8
Xo'jayli	121,4	123,0	101,3
Chimboy	111,5	112,4	100,8
Shumanay	55,7	56,2	100,9
Ellikqal'a	156,6	159,6	101,9

Demografik holat

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-aprel holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



Demografik holat


Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-mart oylarida 8,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 17,5 promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi (2019-yilning yanvar-mart oylarida 17,7 promille bo'lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mayjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




**Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-mart)**



Demografik holat

Vafot etganlar. 2020-yilning yanvar-mart oylarida 1,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,0 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar- mart oylarida 3,8 promille bo'lган).

Tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-mart)



2020-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,7 % - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,3 % - o'simtalardan, 5,5 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,2 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,7 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,9 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,7 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 64,5 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 15,9 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,1 % - tug'ma anomaliyalardan, 4,3 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, va 10,2 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2020-yil yanvar-mart holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



Demografik holat

Tumanlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %)



Demografik holat

Tabiiy o'sish. 2020-yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 6,3 ming kishini tashkil etib, 2019-yil mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga (2019-yilning yanvar-mart oylarida 6,4 ming kishi bo'lgan) kamaygan.

Tabiiy o'sish — 6,3 ming kishi




Nikoh. 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,7 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,8 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kegeyli (21,1 %), Qanliko'l (21,0 %), Mo'ynoq (20,9 %), va Beruniy (12,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Tumanlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2019 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Shumanay (2,20 marta oshdi), Chimboy (2,10 marta oshdi), va Qorao'zak (2,0 marta oshdi) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

Migratsiya. 2020-yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,5 ming kishini (2,4 ming kishi respublika hududlaridan, 0,1 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 3,3 ming kishini (2,6 ming kishi respublika hududlariga, 0,7 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,8 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 0,6 ming kishi bo'lган.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019 yil yanvar- mart	2020 yil yanvar- mart
Ko'chib kelganlar	3,2	2,5
Ko'chib ketganlar	3,8	3,3
Migratsiya saldosi	-0,6	-0,8

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Chimboy (minus 188 kishi), Kegeyli (minus 142 kishi) va Qorao'zak (minus 111 kishi) tumanlarida qayd etildi.



Demografik holat

Poytaxtdagi demografik holat. Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2020- yil 1 aprel holatiga 321,0 ming kishini tashkil etib, 2020-yil boshidan 1,4 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sgan.



2020-yilning yanvar-mart oylarida 1,6 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 19,5 promilleni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,4 ga (2019-yilning mos davrida 16,1 promille bo'lgan) o'sdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida 0,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 39 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 4,1 promilleni tashkil etti. (2019-yilning mos davrida 4,0 promille bo'lgan).


Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 1,2 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,3 ming kishiga o'sishi (2019-yilning mos davrida 0,9 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2020-yilning yanvar-mart oylarida 524 ta nikoh va 82 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,6 promilleni tashkil qilib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,5 ga kamaydi (2019-yilning mos davrida -7,1 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,0 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ga kamaydi. 2019-yilning mos davrida 1,1 promille bo'lgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (1000 aholiga nisbatan, yanvar- mart holatiga, promille)



Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
(71) 230-82-18
(61) 222-76-57